


**Do`stlik tuman axborot-kutubxona
markazi**



**ERKIN A'ZAM
tavalludining 74 yilligiga
bag`ishlab**

**“So`z qadrini zargar kabi qadrlaydigan yozuvchi”
nomli kitobxonlarga
esdalik.**

DO`STLIK SHAHRI-2024



Tuzuvchi Axborot bibliografiya xizmati rahbari M.Raximova.

Erkin A'zam (A'zamov Erkin Normamatovich) (1950.10.8, Boysun tumani) — yozuvchi, publitsist, stsenarist.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist (1998), Toshkent davlat universitetining jurnalistika fakultetini tugatgan (1972).

O'zbekiston radiosida muharrir (1972—76), «Guliston»

jurnalida muharrir, adabiy kotib (1976—81), «Yoshlik» jurnalida bo'lim mudiri (1981—86), G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida tahririyat mudiri, ijodiy guruh rahbari (1986—92), O'zbekiston Milliy axborot agentligi bosh direktorining 1-o'rinbosari (1992—94), Respublika «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi rahbari o'rinbosari bo'lib ishlagan. «Tafakkur» jurnalining bosh muharriri (1994 yildan).

Dastlabki hikoyalar to'plami — «Chiroqlar o'chmagan kecha» (1977). «Otoyining tug'ilgan yili» (1981), «Olam yam-yashil» (1984), «Javob» (1986), «Bayramdan boshqa kunlar» (1988), «Pakananing oshiq ko'ngli» (2001), «Kechikayotgan odam» (2002), «Jannat o'zi qaydadir» (2007), «Shovqin» (2011) kabi qissa va hikoyalardan iborat kitoblari nashr qilingan.

Erkin A'zam asarlari o'ziga xos yumoristik bayon uslubi, kinoyali tili, kutilmagan badiiy yechimlarga egaligi bilan ajralib turadi. Yozuvchining insonga xos eng chigal jihatlarni ochiq ko'rsatmay, imo-ishora orqali aks ettirishi uning asarlari ta'sirchanligini oshiradi. Erkin A'zam qissa va hikoyalarda oddiy va to'pori, boshqalarga o'xshamaydigan, dardu tashvishlari, shaxsiy kechinmalari bilan yaqqol ajralib turadigan badiiy xarakterlarni yaratgan. Xarakterlar falsafasini yoritish, uslubiy taranglik, psixologik tahlilning kuchliligi, asar syujetining xarakterlar asosiga qurilishi, voqealar o'rtasidagi bog'liqlikni obrazlar, detallar orqali ifodalash, muallif va personaj nutqining yaqinligi, psixologizm va falsafiylikning mushtarakligi Erkin A'zam badiiy uslubining asosiy xususiyatlari hisoblanadi.


«Chantrimore», «Piyoda», «Pakana», «Dilxiroj», «Erkak», «Parizod» kabi ekran asarlarining hammuallifi. 1 va 2-chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputati.

Erkin A'zamning hikoya va qissalari rus, ukrain, belorus, qozoq, tojik, turkman, gruzin, bulg'or, chex tilla-riga tarjima qilingan. Adibning o'zi ham o'zga xalqlar adiblari asarlarini rus tilidan o'zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan.



Marhabo Qo'chqorova, Obidjon Shofiev
ERKIN A'ZAM VA ISTIQLOL DAVRI O'ZBEK NASRI
(So'zboshi o'rnida)

Istiqlol davri o'zbek nosirlari orasida Erkin A'zam ijodi alohida e'tiborga loyiq. Adibning ijodiy faoliyati nihoyatda serqirra va rang-barang. Chunki, Erkin A'zam o'zining nosir, dramaturg, publitsist, kinostsenarist, muharrir sifatidagi adabiy qirralarini namoyon etdi.



Erkin A'zam so'z qadrini zargar kabi qadrlaydi. U so'zdan avaylab asrab foydalanadi, shu bois adibning roman, qissa, hikoya va badiiy-publitsistikasida so'zning ming xil badiiy tovlanishlari jilolanib turadi. Yozuvchi nasrida

kinoya, yengil kulgi, zaharxanda, qahqaha, piching, kesatiq, masxaraomuz, mazaxlovchi hazil qatlamlari, sarkazm, so'z o'yinlari, parodiya, paradoks, parodiyaviy obrazlilik, niqoblangan obrazlar quzatiladi. Adibning so'zga, chinakam adabiyotga bo'lgan talabchanligini, injiqligini, obrazli ifoda va o'tkir kinoya vositalarini qo'llashiga qarab, biz uni zamonaviy o'zbek adabiyotining tamal toshini qo'ygan Abdulla Qodiriy, Fitrat, Cho'lpon, G'afur G'ulom, Oybek, Abdulla Qahhorlarning munosib izdoshi, munosib shogirdi deya olamiz. Erkin A'zamni ba'zi adabiyotshunoslarimiz "Abdulla Qahorning shogirdi" desa, yana boshqasi "Asqad Muxtorning shogirdi" deyishadi. Nazarimizda, Erkin A'zam nasrida XX asr o'zbek prozasining yetuk ijodkorlari A.Qodiriy, A.Qahhor, Oybek, G'.G'ulom, A.Muxtor, S.Ahmad kabi yozuvchilarning ijodiy an'anapari va tajribalari davom etgarildi. Bundan tashqari, adib ijodiga dunyo adabiyotining yirik yozuvchilari Aziz Nesin, Fozil Iskandar, Grant Matevosyan, Sevela Efraim kabilarning ijodiy uslublari ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Albatga, yozuvchi ko'p narsalardan ta'sirlanadi. U mudom o'rganadi, kuzatadi, tinimsiz mutolaa va yozish mashaqqati bilan band bo'ladi. Ammo ijodkor shaxs uchun avvalo, uning hayoti, ko'rgan-kechirganlari, hissiyotlari, bo'lalik xotiralari eng muhim badiiy omil bo'lib qolaveradi. Shu bois Erkin A'zamning ustozlari kim? u qaysi ijodkorlar asarlaridan ta'sirlandi? — degan mazmundagi savollarga javoblar xilma-xil va munozarali bo'lib qolaveradi.

Yozuvchi, avvalo, Xudo bergan iste'dod va ijodiy mehnat qilish layoqatiga ega bo'lishi kerak. Aks holda, har qanday buyuk iste'dod ham yuzaga chiqmay qolishi

mumkin. Erkin A`zamga iste`dodni Olpoh yuqtirgan. Yana u tirishqoq va mehnatkash inson.

Adib o`zbek adabiyoti maydoniga 60-yillar oxiri, 70-yillar boshida ilk hikoyalari bilan kirib keldi. Shundan beri ijodiy, rasmiy-jamoatchilik, muharrirlik ishlarini sidqidildan bajarib kelmoqda. Muallifning “Chiroqlari o`chmagan kecha”, “Otoyining tug`ilgan yili”, “Javob”, “Olam yam-yashil”, “Bayramdan boshqa kunlar”, ‘Pakananing oshiq ko`ngli”, “Kechikayotgan odam”, ‘Guli-guli”, “Ertak bilan xayrlashuv”, “Jannat o`zi qaydadir”, “Shovqin” kabi hikoya, qissa, badiiy-publitsistika to`plamlari, romani keng adabiy jamoaggchilikka, shuningdek, oddiy kitobxonlarga ham ma`lum va mashhur.

Erkin A`zamning sho`rolar davrida yozilgan asarlaridan zamonasozlik, sovetparastlik, soxta qahramon yaratish, sxematizm unsurlarini topolmaysiz. Adibning sho`ro davrida yaratilgan asarlari bugun ham eskirmagan. Uning asarlari mustahkam badiiyati, umuminsoniy g`oyalari bilan bugun ham aziz va ardoqli. Erkin A`zam bir qator asarlarida — “Shoirning to`yi”, “Chapaklar va chalpakpar mamlakati”, “Pakananing oshiq ko`ngli”, “Guli-Guli”, “Zabarjad”, “Farishta”, “Suv yoqalab”, “Shovqin”da yangicha badiiy shartlilik vositalaridan bag`oyat mohirlik bilan foydalandi. Xususan, bu qahramonlarga ism tanlashdan tortib, voqealarni bayon etish, chapani, qaysar, o`jar xarakterli kishilar obrazini bosh qahramon sifatida yaratishida ko`rinadi.

Istiqlol davri o`zbek nasrida idealda yoki ko`ngilda adashgan odamlar obraziga eng ko`p murojaat qilindi. Ijtimoiy idealda, e`tiqodda, ko`ngilda adashgan, aldangan odamlar obrazi Shukur Xolmirzaev, Erkin A`zam, Ahmad A`zam, Shoyim Bo`taev, Xurshid Do`stmuxdmmad, Nazar Eshonqul, Ulug`bek Hamdam, Qo`chqor Norqobil, Luqmon Bo`rixon kabi ijodkorlar nasrida keng va har tomonlama yoritildi. Masalan, Erkin A`zam nasrida Bolta Mardon (“Suv yoqalab”), Salom chapdast (“Chapdast”), Pakana rassom (“Pakananing oshiq ko`ngli”), Salim Qaror (“Ta`ziya”), Mirzo Ramazon, Farhod Ramazon, Baynalmilalchi bobo (“Shovqin”), Sho`ro bobo, O`rmon kalta (“Guli-guli”) kabi yuzlab obrazlar borki, ularning ko`pchiligi idealda, ba`zilari esa ham idealda, ham ko`ngilda adashgan. Umuman, olganda “aldangan avlod”ning hayoti, fojialari, inqirozga yuz tutgan e`tiqodlarini, ko`ngil royishlariga qarshi yashayotgan qahramonlar iztirobini Erkin A`zam ham o`zicha, o`z badiiy qarichi bilan har tomonlama mukammal talqin etishga harakat etdi. Istiqlol davri o`zbek nasrida “Aldangan avlod taqdiri” (“Umri zavol topgan avlod” desa ham bo`ladi) turli rakurslardan turib, o`nlab ijodkorlarimiz tomonidan yoritildi. Shu bois bu adabiy voqelikni tizimli ravishda, monografik planda yosh tadqiqotchilarimiz yangicha zamonaviy ilmiy-nazariy qarashlar bilan o`rganishi, ajoyib ilmiy kuzatuvlar olib borishlari kerak, deb o`ylaymiz.

“Anoyining jaydari olmasi”dagi Ramazon, “Piyoda”dagi Berdiboy, “Bayramdan boshqa kunlar”dagi Safura, “Pakananing oshiq ko`ngli”dagi Pakana rassom, “Otoyining tug`ilgan yili”dagi Asqarbek, “Javob”dagi Nuriddin Elchievlar


yaratilganidan beri hozirgi kungacha ko'ptab bahsu munozaralarga sabab bo'lib kelmokda. Kimdir, bunday nostandart obrazlar yaratilishini yozuvchining fe'li-tabiati bilan bog'lasa, yana kimdir qahramonning jamiyat bilan kelishmovchiligida deb biladi. Erkin A'zam hayoti va ijodiy faoliyati haqida bilishimizcha, ikki yuzga yaqin maqolalar, taqrizlar yozildi. Shunga qaramasdan, Erkin A'zam badiiyati sirlari haligacha jiddiy monografik ko'lamda ishlanmadi. Albatta, poytaxtda va undan tashqarida ilmiy ish bilan shug'ullanayotgan yosh tadqiqotchilarimiz adib ijodini yangicha ilmiy mezonlar asosida o'rganishga bel bog'lashgan. Bugun Erkin A'zam ijodi adabiyotshunos, tilshunos, san'atshunos, kinoshunos, teatrshunos kabi mutaxassislar tomonidan xilma-xil rakurslardan turib o'rganilyapti.

Erkin A'zam O'zbekistonning YUNESKOdagi vakolatxonasi taklifiga binoan 2013 yilning may oyida Frantsiyaning Parij shahrida ijodiy safarda bo'lib qaytdi. Bu ijodiy muloqotlar davrida Erkin A'zam asarlarining mazmun-mohiyati, shuningdek, adib qalamiga mansub kinoqissa — “Parizod” fil'mining taqdimot marosimi bo'lib o'tdi. Bizningcha, o'zbek kinostsenaristlari orasidagi Erkin A'zamning bunday muvaffaqiyatlari nafaqat kinoshunoslik sohasining, o'zbek adabiyotining ham jiddiy yutuqlaridan. Erkin A'zam kinostsenariylari asosida suratga olingan “Parizod”, “Erkak”, “Dilxiroj”, “Zabarjad”, “Chantrimore” fil'mlari dunyo ekranlarini bezadi.

Biz mazkur to'plamga jamlangan maqola, esse, maktub, suhbatlarni mavzulashtirib, alohida bo'limlarga ajratdik.. Jumladan, “Erkin A'zam adabiyotshunoslik ko'zglasida” bo'limidan U. Normatov, A. Rasulov, SH. Rizaev, Q. Yo'ldoshev, N. Jabborov, I. G'aniev, N. Afoqova, F. Hamroev, A. Ulug'ov, M. Rahim, N.Yo'ddoshev, G.Sattorova, S.To'laganova, M.Qo'chqorova, M.Sheralieva, B.Yoriev, O. Shofiev kabi katga va yosh adabiyotshunos, tadqiqotchilarning maqolalari o'rin oldi. Kitobning “Erkin A'zam va kino” deb nomlangan bo'limida O. Sharafiddinov, N. Karimov, A. Gellerning Erkin A'zam kinostsenariylari asosida ekranlashtiripgan fil'mlari haqidagi ilmiy-tahliliy maqolalarini o'qishingnz mumkin. “Erqin A'zam ijodi yosh tadqiqotchilar nigohida” deya nomlangan bo'limda S .Qurbonov, Umid Ya'qub, Z. Umurqulov, YO. Odilov, A. Shukurov, D.A ndaniyozovalarning badiiy-estetik, lingvo-poetik talqinlarini o'qiysiz. “Ijodkorlar ijodkor haqida” bo'limidan esa SH.Xolmirzaev, N.Normatov, S.Sayyid, M.Qarshiboy, N.Boqiy, A.Yo'ldosh, N.Muhammad Raufxon kabi yozuvchilarning Erkin A'zam ijodi, hayoti, ustoz-shogirdlik munosabatlari haqida yozilgan samimiy maktub, esse, maqolalari joy olgan.

Kitobning so'ngi qismi “Dilkash suhbatlar” deb nomlangan. Bu bo'limda olimlar, jurnalist, muxbir va yosh havaskor yozuvchilar G.Sattorova, M.Qo'chqorova, S.Qurbonov, X.To'liboev, S.Kamol, S.Yoqubov, M.Tojimamatova, D.Matkarimova, Umid Ali, Fozil Farhod, Orif Tolib, J.Kengboevlarning adib bilan olib borgan adabiy-tanqidiy, publitsistik suhbatlari bilan tanishasiz. Mazkur bo'limda jamlangan suhbatlar ham bir-biridan maroqli. Ularda Erkin A'zamning adabiyot, badiiy ijod, jamiyat, kitob, ma'naviyat, ma'rifat haqidagi intellektual jihatdan baland saviyasini his etasiz.

Xulosa shuki, to'plamga jamlangan ilmiy maqola va suhbatlar yaxlit holda bitga adabiy kartinani, ya'ni Erkin A'zam badiiy olamini kashf etadi. Umid qilamizki, mazkur jamoaviy to'plam Erkin A'zam ijodini, yozuvchining o'ziga xos uslubini anglashda tadqiqotchi va kitobxonlarga ko'makchi manba bo'ladi. Kelajakda bundan-da mukammal va batafsil ilmiy izlanishlar qilinishidan umidvor bo'lib qolamiz!



**YOZUVCHILIK QISMATI, NOBEL` MUKOFOTI, MO`JIZA VA BOY
BERILGAN FURSAT HAQIDA**
Taniqli yozuvchi Erkin A'zam bilan suhbat
Sobir KAMOL suhbatlashdi.

Taniqli yozuvchi va dramaturg Erkin A'zamning asarlari qisqa va lo'nda ifoda yo'sini, hayotiyligi bilan yaqqol ajralib turadi. Adib qalamga olgan obrazlar o'ylab topilgan soxta qahramonlar emas, bari sizni biz bilan hamnafas yashayotgan, ammo ko'pda e'tibor qozonmagan sodda-do'lvor, samimiy odamlar. Yozuvchi asarlaridagi xalq tiliga xos jonli so'zu iboralar, serzavq va yumoristik badiiy ifoda kitobxonni rom etmay qo'ymaydi. Sevimli adibimiz bilan suhbat ham o'quvchilarimizga manzur bo'ladi degan umiddamiz.

— Erkin aka, suhbatni adabiyotga kirib kelishingiz, ilk qadamlar, urinishlardan boshlasak.

— Agar shuni yozish deb hisoblash mumkin bo'lsa, to'rtinchi sinfda o'qib yurganimda bir narsa qoralaganman. Nomiya jarangdor: “Haqiqat bor joyda tug'ishganingni ham ayama!” Sinfimizdagi mojaroga bag'ishlangan anchayin sayoz mashq, “pioner adabiyoti”ning yorqin namunasi edi u. “Lenin uchquni”ga yuborganman, gazetadan abjag'ini chiqarib javob yo'llashgan... Bu yog'ini so'rasangiz, “pioner adabiyoti” meni uzoq yillar chalg'itdi. Yoshligimda juda ko'p

bemaza kitoblarni o'qishga majbur bo'ldim, behuda narsalar yozdim. Endi o'ylasam, o'sha paytda biror bilgich odam chiqib, Tolstoyini, Pushkinni, Chexovni o'qi, hali-beri do'ndirib yozolmaysan, shuning uchun hozircha nimani ko'rsang, bo'yab-bejamay qog'ozga tushirishni o'rgan deb o'git berganida, ehtimol, haqiqiy adabiyotni ertaroq tanigan bo'larmidim... Soxta qahramonlar bilan to'la kitoblarni o'qiyvergach, adabiyot yolg'on ekan degan xayolda yurganlarim rost. O'ttiz yillar o'tib, chin adabiyotni sal-pal tanigach, bildimki, inson ko'nglidagi haqiqatlarni adabiyotchilik xolis ochib beradigan soha yo'q ekan.

— Yozuvchilikni tanlashingizga nima turtki bo'lgan?

-O'ta ta'sirchanligim, o'lgudek xayolparastligim va albatta kitobga o'chligim. Otam, amakilarim ham adabiyot-san'atga havasmand, o'zim uchun esa dunyoda mutolaadan maroqliroq mashg'ulot yo'q edi. Uyimizda kattagina kutubxonamiz bo'lardi. Navoiyning "Xamsa"sini tez-tez qo'lga olardim, pishiq muqovali kitobga har gal ko'z yugurtirganimda, nega shunday ka-atta kitobning nomi noto'g'ri yozilgan-a, axir "Hamza" bo'lishi kerak-ku, deb o'ylardim. Uni qayta-qayta o'qishga urinardim, ammo bir satriga ham tishim o'tmasdi. Har biri yostiqlik keladigan ikki jildlik "O'zbek xalq dostonlari" kechayu kunduz sevimli "yostig'im" edi. Dostonlardagi barcha voqealar Boysunda bo'lgandek tuyulardi, ular-ning bariga chippa-chin ishonardim.

"Tom Soyerning sarguzashtlari"ni takror-takror o'qiganim, "Gekl'berri Finning boshidan kechirganlari" tarjimasini intiqlik bilan kutganim esimda. Pushkinning "Kapitan qizi" qissasini ham qo'ldan qo'ymay xatm qilganman. Masha va Grinyovni ijobiy, Pugachyovni salbiy qahramon deb o'ylaganman. Maktabda esa buning teskarisi aytilgan. Hozir bu qahramonlarga munosabat yana o'zgardi, shekilli...

— Yozuvchi Xurshid Do'stmuhammad suhbatlaridan birida "Badiiy ijod — muhtalolik!" degan edi. Siz-chi, hayotingizni ijodsiz tasavvur qila olasizmi?

— Xurshid do'stim topib aytgan ekan. Muhtalolik deganda, dardni, iztirobni nazarda tutgan bo'lsa kerak- da. O'quvchilar gaplarimni balandparvoqlik deb qabul qilishmas, ko'nglimdagi dunyom bilan real dunyo o'rtasida nomuvofiqlik sezaman. Ko'nglimning olami adolatliroq tuyuladi menga. Yozganlarimda ana shu kechinmalarni ifodalashga urinaman. Yozmay yurgan kezlarim dunyoda mendan yomon, mendan baxtsiz, mendan nochoru noshud odam yo'q. Shu hisobda, oltmish yillik umrimning ko'p qismi zabun kayfiyatda o'tgan desa bo'ladi. Kitoblarimdan biri bekorga "Kechikayotgan odam" deb nomlanmagan.

— "Qisqalik — iste'dodning singlisi » deydi ruslarning ulug' yozuvchisi Chexov. "Men so'zni tonnalab olib, grammlab sotaman " deydi o'zbekning zabardast adibi Abdulla Qahhor. Sizning asarlaringizda ham so'zni ayash, tejash seziladi...

— O'zimni kamgap odam deyolmayman. Gohida yaxshi hamsuhbat uchrab qolsa, jag'im ochilib ketadi. Lekin ba'zi izdihom, anjumanlarda soatlab miq etmasligim mumkin. Yozishga kelsak, sergaplikka — "so'z bo'tqasi"ga mutlako qarshiman.

O'quvchining ham vaqtini hisobga olish kerak. Umrim bino bo'lib, ezmalik menga yoqadi, degan odamni uchratmadim. Yozuvchi dangal, bo'lar gapni aytgani ma'qul.

Eskilardan qolgan naql ham bor-ku: "Oz ye, oz de". Fikrni o'nta gapdan ko'ra bitta jumlada ifodalashning ta'siri zo'rroq bo'ladi. So'zga ziqnalik fe'l-atvorimdagi sanjoblik bilan ham bog'liqdir. Lekin iste'dodning Siz aytgan qisqaliqdan boshqa singillari, aka-ukalari ham borligini unutmashlik kerak.

— Sizingcha, so'nggi yigirma yilda qaysi adiblarimiz e'tirofga loyiq asarlar yarata oldi?

— Oxirgi yigirma yilda Shukur Xolmirzaev, Xurshid Do'stmuhammad, Hamid Ismoil, Sharof Boshbekov, Abduqayum Yo'ldoshev, Shoyim Bo'taev, Nabi Jaloliddin, Luqmon Bo'rixonning yaxshi asarlarini o'kidim...

Har bir yozuvchi kichik hikoya yozadimi, kattaroq qissa-romanmi, albatta yangi gap aytishi kerak. Aslida, yozish — ko'ngil mayli. Yozuvchi-shoirdan uni yoz, buni yoz deb talab qilish — ijod erkinligining muqaddas tamoyiliga zid. Ijod ahliga faqat bitta talab qo'yilishi mumkin: nimani yozsang yoz, ammo toza va haqqoniy yoz!

— Nimalar gashingizga tegadi, jahlingizni chiqaradi?

— Oynai jahon orqali "xushovoz xonandalar" ko'p ko'rsatiladi. Bunisi ham mayli, ular "mening ijodimda..." deb gap boshlaganida ensam qotadi. "Ijod" so'zini xuda-behuda ishlatishga qarshiman. Yozganlarimni ham "asarim" demayman, "narsam" yoki "qissa, hikoya" deb qo'ya qolaman. Bu kamtarliqdan emasdir, bilmadim, shu so'zni ishlatishga istihola qilaman-da. (Chexov ham "krasivo", "shikarno" so'zlarini jinidan battar yomon ko'rgan ekan.) "Chiroyli qarsaklar" degan ifodani eshitganda ham asablarim dosh bermaydi. Ma'rifiy dunyomizda qo'llash rusumga aylangan yana ko'p ifodayu iboralarni hazm qilolmayman, ularni tuzatish qo'limdan kelmasligini o'ylaganda battar hunobim oshadi.

— Jamiyatimizdagi avomu xos orasida ko'n muhokama qilingan bir masalaga munosabatingizni bilmoqchi edim: nima uchun o'zbek ijodkorlaridan Nobel' sohiblari chiqmaydi? Bugungi yozuvchi-shoirlarimizdan birortasi shu mukofotni olishiga ko'zingiz yetadimi?

— Voqean, Nobel' mukofotini berishda Shvetsiya akademiyasigagina ma'lum omillar rol' o'ynaydi. Ammo bu mukofotni olgan ba'zi ijodkorlarning asarlarini o'qib hayron bo'lganman: men bilgan adabiyot boshqacha-ku! To'g'ri, yangicha ifoda yo'sini, ijodiy shijoat, milliy biqlikdan yuksalish omillari ham hisobga olinadi. Har holda, mukofot berishda birlamchi talab har doim ham badiiyat bo'lmaydi-da, shunisi chatoq. Eshitgan gapimni aytay. Bultur Parijda Nobel' mukofotiga bag'ishlangan mashvarat bo'libdi. Yig'inda bir badgumon odam chiqib, adabiyot yo'nalishidagi Nobel' mukofoti ko'pchilik yozuvchi-shoirlarga tasodif sababli yoki adolatsizlik orqasidan beriladi, tasodifiyat shu qadar

kuchliki, kutilmaganda allaqanday o'zbek adabiyotidan ham nomzod topilsa, ajablanmayman debdi. Ittifoqo, shu anjumanda bir vatanparvar yozuvchi do'stimiz ham qatnashayotgan ekan, chidab o'tirolmay, so'zga chiqibdi, "allaqanday o'zbek adabiyoti" degan bepisand gapni yakson qiladigan nutq so'zlabdi. Rahmat.

O'zini bilgan-bilmagan bitta-yarimta da'vogar ham topilar, ammo bugun adabiyotimizda men bilgan Nobel mukofotini olishga qodir ijodkor yo'q deb o'ylayman. Bunda ijodgina emas, shaxsiyatning butunligi ham muhim. Nafsilamrini aytganda, berilsa, Chingiz Aytmatovga berilishi kerak edi bu mukofot. Kelajakda shunga arziydigan ijodkor chiqishi uchun hozirdanoq zamin tayyorlash kerak. Buning uchun ijodkor o'zbekiy tiynatdan uzilmagan holda, jaydari o'zbekchilikdan yuksalmog'i darkor. Abdulla Qahhor toifasidagi bir adib shu kunda o'ttiz yoshlarda bo'lib qolsa va shijoatu g'ayrat bilan ijod qilsa, ehtimol, Nobel` mukofotini olishi mumkin edi...

— Adabiyot muhoblari bilan to'lib-toshgan katta auditoriyalar, dastxat so'rab, ko'zi chaqnab turgan muxlislar yaqin o'tmishda qolgandek. Mutolaaga e'tibor susayib ketgani sababi nimada, deb o'ypaysiz?

— Bozor munosabatlari kirib kelishi bilan odamlar ongida kitob o'qimasdan, biror o'quv yurtini bitirmasdan ham, to'kin-sochin, baxtiyor yashash mumkin degan qarash paydo bo'ldi. Bu esa jamiyatning muvoziy jabhalari — adabiyot, san'atga salbiy ta'sir o'tkazdi. Qarang, erkinlikning ham shunday jihatlari bo'lar ekan-da. Yoshlar Internetni o'rganyapti, zamon bilan hamnafas ulg'ayyapti deb o'zimizni yupatamiz. Lekin ular his-tuyg'udan begonalashib borayotganiga e'tibor bermaymiz. Zamon bolalaridan "O'tkan kunlar"ni, "Anna Karenina"ni so'rasangiz, faqat kinosini ko'rgan-da, Zaynab Kumushni zaharlagan, Anna Karenina o'zini poezd tagiga tashlagan deb syujetni aytib beradi. Holbuki, adabiyot quruq axborot emas, sezgilar, hissiyotlar ifodasi. Tolstoyni, Qodiriyini asliyatda o'qishga ne yetsin!

Bir vaqtlar "O'qigan — o'zar" degan shior bo'lardi. Bugun ham shu naql ahamiyatini yo'qotmagan. Farzandlarimizni mutolaaga qaytarish uchun chinakam bilimli (shunchaki diplomli emas — uni o'qimasdan ham, turli yo'llar bilan olish mumkin), tirishqoq, mustaqil fikrli yoshlarga keng yo'l ochish, ularni rag'batlantirish kerak. Yoshlarimizda bozor maishati omonat bir tirikchilik, chinakam bilim egasigina murodga yetadi degan ishonchni mustahkamlash lozim.

— Hikoya-qissalaringiz asosida "Chantramore", "Piyoda", "Erkak", "Dilxiroj», "Jannat qaydadir", "Zabarjad", "Suv yoqalab» kabi badiiy fil'mlar ishlandi. Asarlaringizning kinotalqinlaridan ko'nglingiz to'ladimi?

— Asosan uch rejissyor — Yusuf Roziqov, Jahongir Qosimov, Bahodir Odilov bilan ishlaganman. Ularni, har holda, kino san'atiga munosabati tozaroq, samimiyroq ijodkorlar deb bilaman. Lekin qissa-hikoyalarimni o'zim ekranga ko'chiram, boshqacha chiqqan bo'larmidi degan xayol ham yo'q emas. Abdulla Qodiriyning "Agar "O'tkan kunlar" kino qilinsa, Otabekni o'zim o'ynashim

kerak”, degan mazmunda gapi bor. Ochig’i, har gal kinochilar bilan ishlaganimda asabiylashaman, qaytib kinosiga oyoq bosmayman deb qasamlar ichaman va... har gal qasamni buzaman. Kinoni yaxshi ko’rsam kerak-da. Vaholanki, kino mendek injiqtabiat odamning ishi emas.

— Printsiplaringizni chetga surib, yurak amriga qarshi borgan vaqtlaringiz bo’lganmi?

— Ha, bo’lgan. Ruxsat etsangiz, shunga misol keltirmasam... Murosasozlikka borganimdan keyin uzoq vaqt o’zimga kelolmayman. Bundan bu yog’iga o’ylabroq qadam bossam kerak, har holda, shunga harakat qilaman. Abdulla Qahhorni murosaga boshlamoqchi bo’lganlarida, falon yoshga kirdim, endi meni bukaman deb sindirib qo’yishlaringiz mumkin degan ekan.

— Qo’rquv — inson zotiga hamisha hamroh tuyg’u. Nimadan qo’rqasiz?

— Ko’nglim to’ladiganroq biror narsa yozmay o’tib ketishdan qo’rqaman.

— Sizni hayotda nima tutib turadi?

— Hayotning qadriga yosh o’ta boshlaganda yetarkansiz. Yigitliqda dunyo meniki deb o’ylaysiz, yosh qaytgani sari umr barmoqlar orasidan to’kilayotgan qumga o’xshab qoladi, tutib qolgingiz keladi-yu, buning uddasidan chiqish amrimahol. Milliondan, balki milliarddan bir imkoniyat bizga nasib etib, inson bo’lib yaralgan ekanmiz, bu behikmat emas, albatta. Ana shu ishonch-e’tiqod tutib turadi meni.

— Oila, farzand tarbiyasi borasida nima deysiz?

— Bolalar tarbiyasi bilan bevosita shug’ullanmaganman, ibratli otalar kabi farzandlarimni qo’lidan ushpab sirkka yoki muzeyga olib bormaganman. O’zimdan ortgan emasman, o’zimni juda mashg’ul odam deb bilganman-da. Ularning tarbiyasi bilan onasi shug’ullangan. Xudoga shukr, nolimayman, uchala farzandim ham o’zi qiziqqan soha bo’yicha o’qidi. Yana xursandmanki, birortasi adabiyotni tanlamadi. Yozuvchilik — bir umr halovatsizlik, uni o’zimdan boshqaga ravo ko’rmayman.

— Bu olamda armonsiz odam yo’q deydi mashoyixlar...

— Umrimning ko’p qismi keraksiz hoyu havas, romantika, sayozlik bilan o’tib ketdi. Bundan bu yog’iga tuzukroq bir-ikki narsa yozsam...

—Kutilmagan mo’jizalarga ishonasizmi?

— Odamzodning tabiati qiziq, ergaga baribir boshqacha bo’ladi, deydi, umr bo’yi mo’jiza kutib yashaydi, lekin hayot baribir o’zinikini qiladi. Aslida mo’jiza deganlari sizni bizning qo’limizda. Sizdan ko’ngli qolib yurgan do’stingizga uzrxohpik qilib, uni yaxshi ko’rishingizni aytasangiz — mo’jiza. Taskin istayotgan dardmanddan bir og’iz shirin so’zingizni qizg’anmasangiz — mo’jiza. Modomiki, bsshqalarga mo’jiza baxsh etish imkonimiz bor ekan, biz xam noumid yashamasak bo’lar.



Hurriyat *Mustaqil gazeta*

6-avgust 2020-yil 29-son, chorshanba • № 211098

ТАРБИЙЧИ ҚАЙТИШ **БОҒЕР — УНАМ ТАРБИЙЧИ БУЎМАСИ** **ТУРКЮБЧИ ҚАВАТ**

АРАВА **Калбларда ҳаюват ва эзу илтижо**

ТАКСТ **Мақсад жазолашми?**

АДАБИЙ ПОРТИЦА ЧИГАРЛАР **БОТИНДАГИ БҮРОН**

БОШ ПРОКУРАТУРА «Сараб суи оёмори ҳодисалари» юзасидан расмий баёнот тарқатди

ШУНДА ДАДА

ASR **Ўнгином** **6-AUGUST, 20 (07.0), 2020**

Эркин Аъзамнинг "Тафаккур"и

«Тафаккур» жумҳурий таълим ва маданият бўлими раҳбари бўлиб ишлайдиган эркин аъзамнинг «Тафаккур» романи шу кунларда нашр бўлди. Бу романинг мазмунини муҳаррирларимиз билан суҳбат қилиб, унинг асосий қисқичларини билдиришга ҳаракат қилдик.

«Тафаккур» романининг асосий қаҳармонлари — эркин аъзамнинг ўғли ва катта қизидир. Уларнинг ҳаётини, оила ҳаётини, таълим ва маданият соҳасидаги қилмишларини романинг асосий қисқичлари ҳисоб қилиш мумкин.

«Тафаккур» романининг асосий қаҳармонлари — эркин аъзамнинг ўғли ва катта қизидир. Уларнинг ҳаётини, оила ҳаётини, таълим ва маданият соҳасидаги қилмишларини романинг асосий қисқичлари ҳисоб қилиш мумкин.

Erkin A'zam ADABIYOT HAQIDA

Erkin A'zam 1950 yil 10 avgustda tog'li Boysunda tug'ilgan. 1972 yil Toshkent Davlat universiteti (hozir O'zbekiston Milliy Universiteti)ning jurnalistika fakultetini tamomlagan. Respublika radiosida muharrir, «Guliston» va «Yoshlik» jurnallarida bo'lim muharriri, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va Sanat nashriyotida tahririyat mudiri bo'ldi. 1992—1994 yillarda O'zbekiston milliy axborot agentligida bosh direktori o'rinbosari. 1995 yildan «Tafakkur» jurnali bosh muharriri I, II chaqiriq O'zbekiston Oliy Majlisi deputati. «Chiroqlar o'chmagan kecha» (1977), «Otoyining tutilgan yili» (1981), «Olam yam-yashil» (1984), «Javob» (1986), «Bayramdan boshqa kunlar» (1988), «Mir v svetax» (1999), «Pakananing oshiq ko'ngli» (2001), «Kechikayotgan odam» (2002) to'plamlari muallifi. Yozuvchi asarlari asosida «Chantrimore», «Piyoda», «Dilxiroj», «Suv yoqalab», «Zabarjad», «Jannat qaydadir» «Parizod» filmlari suratga olingan. Asarlarini ruhan birlashtirib turadigan jihat-insoniy erk, xar qanday zo'ravonlikka munsabat masalasidir.

* * *

Adabiyot... o'zim yaxshi ko'rgan, hayotimni bag'ish-lamoqqa ahd qilgan soha. Taqdir boshqa bir yo'lga solib yuborganida ham men baribir usiz yashayolmas edim chog'i.

* * *

Adabiyotning bugungi jamiyatdagi o'rnini haqida to'lib-toshib so'zlash qiyindir-ov. Adabiyot, umuman san'at hozirgi kunda pul, manfaat dunyosiga duch kelib turibdi. Bu balolar aralashgan joyda chinakam adabiyotni san'atdan so'z yuritish ortiqcha. Bular ham zamonga moslashsin. Ana, xaridorgir kitoblar peshtaxtalarni to'ldirgan-ku, demoq bo'lsangiz, kaminangiz ularni adabiyot hisoblamaydi-da. Ular yozuvchilik da'vosida, adabiyotga o'xshatib, aslida bozor ilinjida naridan-beri yasab tashlanayotgan nimarsalar, xolos. Haqiqiy adabiyot namunasi bunday tezqadam, tezpishar bo'lmaydi, u dard-li so'zdan, toza so'z-dan dunyoga keladi. Xudo bergan kuni emas, Xudo yorlaqagan kuni!

* * *

Yo'ldagi odamni (yozuvchini) shakllanib bo'lgan, ya'ni manziliga yetgan deyish mumkinmi, aytin? Hayot uni yo'nib, toblantirib, chiniqtirib borishi tabiiy hol. Biroq yo'nilaverib, sip-silliq bo'lib qolmoqdan saqlanish lozim. Unday odamning qalamidan chiqqan narsalar ham o'ziga o'xshab sip-silliq bo'ladiki, adabiyotga buning sira darkori yo'q.

* * *

Meni asarning janri emas, unda erishilgan badiiy natija ko'proq qiziqtiradi. Roman yozgani bilan odam yozuvchi bo'lib ketaversa koshki ekan! Boshqalarni qo'yib buyuk Chexovni oling! Unga zamondosh bo'lgan necha-nechalari o'nlab romanlar yozgan, lekin bugun ularning nomini kim biladi, ayting?

* * *

Bitta "sekret"imni aytaymi? Mavjud andozalarni unutib, sipogarchilikni yig'ishtirib, voqelikni, qahramonlaringizni iloji boricha aniq, rostgo'ylik bilan tasvirlab bersangiz, o'zi shunday chiqaveradi: kulgiliroq, hayratomuz... Bunda o'zingizning shaxsiyatingiz, ta'b-didingiz ham muhim, albatta.

* * *

Ko'p o'qib-o'rganganim, havas qilganlarim rost, ammo sira birovga o'xshatib yozgim kelmaydi. Axir, o'zim-chi, men ham odamman-ku, hech kimga o'xshamayman-ku, bilganimcha, qo'ldan kelganicha yozaveray-chi, deb urinib yotaveraman.

* * *

Ikki yuz-uch yuz sahifali qo'lyozmaning ustiga "roman" deb yozib qo'ygan bilan roman bo'laveradimi? Uzundan-uzoq bir kechmishni anchayin jo'ngina yozib chiqqan yoki tarixan biror davrni olib, "qosh-ko'zi"ni adabiylashtirib qayta hikoya qilib bergan "roman"lar haqiqatan ham ko'payib ketdi. Nima ham derdingiz, Xudo insofini bersin, xolos!
Menimcha, roman deganlarida yangi bir voqelik, yangi ruh, murakkab xarakterlar, ularning chigal taq'diri, shulardan tug'iladigan salmoqli bir falsafa, fikrlar bo'lmog'i lozim. Kitobxonni u ilgari notanish yangi bir dunyo, yangi voqelikka boshlab kirmog'i darkor. Shunaqa asarlarimiz chindan ham kamroq.

* * *

Modern, aslida, yangicha, adabiy bir yangilik degani. Sirasini aytganda, chinakam badiiy asar hamisha kashfiyot, yangicha bo'lmog'i lozim va shu so'zga ko'ngil juda sust
ketsa, uni sira ikkilanmay modern namunalari qatoriga qo'shish mumkin. Darvoqe, rus adabiyotshunosligida bu borada "modernlashgan realizm", ya'ni yangilangan realizm degan bir istiloh ham paydo bo'libdi-ku. Demak, baribir, tagzaminida realizm bor ekan-da, osmonga sapchib nima foyda!

* * *

Har gal yangi nimadir yozganingizda bir gaplarni aytdim-ov, deb o'yloysiz o'zingizcha. Lekin bari – dengizdan tomchi. Dildagisini umrning oxirigacha aytib ado qilib bo'lmas!
Muhim gapni aytish uchun, avvalo, ko'ngilda shunday gap bo'lishi kerak.

Foydalanilgan manbalar:

A`zam, Erkin. Guli-guli:qissalar,kinoqissalar,dramatic asar/E.A`zam.-
Toshkent:G`.G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,2009.-232 bet.

XX asr O`zbek hikoyasi antologiyasi/Tahrir hay`ati: A.Oripov va boshq;Tuzuvchi
va nashrga tayyorlovchilar: B.Karimov,H.Abdiyev.-T.: “O`zbekiston milliy
ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti,2016.-624 b.

A`zam, Erkin. Yozuvchining bog`i:[Matn]/E.A`zam.-Toshkent: Mashhur
press,2019.-288 bet.

© XURSHID DAVRON KUTUBXONASI www.kh-davron.uz

DO`STLIK AKM M.A.RAXIMOVA